UO‘K 81`373.42

KONTEKSTDA ANTONIM VA SINONIM SO‘ZLARNING KONNOTATIV MA’NOSI

(Erkin Vohidov she’rlari misolida)

D.S. Ne’matova, G.A. Soliyeva

Maqolada Erkin Vohidov she’rlari misolida sinonim va antonim so‘zlarning matnda bajaruvchi funksiyasi, ularning kontekst doirasida yuzaga chiquvchi konnotativ ma’nolari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, sinonimik qatordagi dominant so‘z va uning qatordagi boshqa so‘zlar bilan munosabati, antonim va antiteza hodisalarining o‘xshash va farqli jihatlari she’r matni tahlili doirasida yoritilgan. Ijodkorga xos individual sinonim va antonimlarning xususiyatlari haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *konnotativ ma’no, sinonim, antonim, antiteza, badiiy tasvir vositalari, kontekst.*

В статье на примере стихотворений Эркина Вахидова рассматриваются функции, выполняемые синонимами и антонимами в тексте, а также их коннотативные значения, проявляемые в контексте. Также в рамках анализа текста стихотворения выделено доминантное слово в синонимическом ряду и его соотношение с другими словами в строке, факторы сходства и различия явлений антонима и антитезы. Сделаны выводы о свойствах отдельных синонимов и антонимов, специфичных для автора.

Ключевые слова: *коннотативное значение, синоним, антоним, антитеза, средства художественного изображения, контекст.*

Tilshunoslar so‘z ikki xil: atamalik, nomlash (denotativ) va qo‘shimcha emotsional-ekspressiv (konnotativ) ma’noga egaligini qayd etadilar [1]. Shu bilan birga, olimlar konnotatsiyaning ikki: ingerent va adgerent turlarini farqlab, *ingerent* konnotatsiya – so‘zning kontekstdan tashqari olingan holatda anglanadigan, *adgerent* konnotatsiya esa so‘zning ma’lum kontekst doirasida yuzaga chiquvchi ma’nosi mavjudligini ta’kidlaydilar [2. B. 523; 3. B. 11]. Sinonim va antonim so‘zlar nutq doirasidan tashqarida, yakka holda ham qo‘shimcha emotsional-ekspressiv ma’no anglatadiki, bu jihati bilan boshqa so‘zlarga nisbatan tagma’noga ishora qilish xususiyati ularda kuchli bo‘ladi. Shuningdek, “...so‘zning konnotativ ma’nosi nafaqat kontekstda, balki muayyan sinonimik qatorda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda konnotativ ma’no so‘zlarning paradigmatik munosabati asosida belgilanadi” [4. B. 68]. Faqat sinonim so‘zlar qatoridagi dominant so‘zda neytrallik xususiyati sabab qo‘shimcha emotsional-ekspressiv ma’noni o‘z holicha (kontekstdan tashqarida) tashimasligini ham qayd etish zarur. Zero, kontekstdan yulib olingan dominant so‘z (masalan, *yuz*)da hissiy bo‘yoqdorlik, nutq (subyekt)ning tinglovchi(obyekt)ga munosabati (g‘azab, nafrat, sevgi, achinish va b.) to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglashilmaydi. Konnotativ ma’no yuzaga chiqishi uchun yuz so‘zi o‘zi bilan bog‘lanib keluvchi so‘z bilan aloqada tekshirilganda emotsional-ekspressiv munosabat reallashadi. (*“oy yuzli”* (ehtirom, sevgi)*, “cho‘tir yuzli”* (nafrat)). Ammo sinonimik qatordagi dominant so‘zdan tashqari barcha so‘zlarda (*chehra*, *oraz* yoki *turq*, *bashara*) kontekstdan ajratib olinganda nutq subyektining obyektga munosabati (konnotativ ma’no) qirralari anglashilaveradi. Demak, so‘zlarning konnotativ ma’nosi aktuallashuvi so‘zning o‘ziga xos jihatlariga hammavaqt bog‘liq bo‘ladi. A.Lipgartning ta’kidlashicha, metasemiotik tahlil tilning “muloqot – xabar – ta’sir etish” vazifalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni namoyon etadi” [5. B. 73]. Shunga o‘xshash, badiiy asar tahlili jarayonida “muallif – asar – o‘quvchi” halqalari muhim hisoblanadi. Bir qarashda A.Lipgart fikri va badiiy asar tahlilida berilgan uch aspektda umumiylik yo‘qdek, ammo aslida u mavjud. Muloqot keng ma’noda nutq irod etayotgan subyekt va uni tinglovchidan iboratki, badiiy asar ham ayni shu xususiyatni o‘zida tashiydi. Bunda muallif hayolidagi o‘quvchi bilan muloqot qiladi, xabar o‘z-o‘zidan reallashgan nutq (og‘zaki yoki yozma) bo‘lib, so‘z yoki gap ma’lum informatsiya yetkazadi, uchinchi halqa ta’sir etish o‘quvchi nutq irod etayotgan har qanday shaxsning nutqidan muayyan hissiy-intellektual munosabat ta’sirida o‘zgaradi.

Kontekst badiiy nutqning yaralishi va uning qayta yaratilishi (o‘qilishi)da muloqot muallifga, xabar badiiy asarga, o‘quvchi ta’sir etishga funksional jihatdan tenglashadi. Ayni shu aspektlardan biz uchun muhim bo‘lgani ta’sir etish (o‘quvchi) halqasi bo‘lib, quyida sinonim va antonim so‘zlarning kontekst doirasida yuzaga chiquvchi konnotativ ma’nosi va uning o‘quvchiga ta’sir etishi xususida fikr yuritamiz.

A.Abdullayev “Sinonimlarning muhim xususiyatlaridan biri belgini darajalab ko‘rsata olishi va ayni xususiyati bilan o‘ziga xos gradatsiyani yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim gradatsiyani shartli ravishda ikki turga ajratadi: *progressiv* va *regressiv* gradatsiya [6. B. 35]. Ma’lumki, gradatsiya sinonimik qatorning neytral maydoni – sinonimik qatorning dominantiga nisbatan belgilanadi. Agar sinonimlarning belgi darajasi dominant so‘zning belgi darajasiga nisbatan izchillik bilan rivojlansa (bu o‘rinda salbiy yoki ijobiylik semasi muhim emas) progressiv gradatsiya, aksincha, dominant so‘zga nisbatan belgi darajasining izchilligi pasayib borsa regressiv gradatsiyadir.

“O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”da [7. B. 358] *yuz* so‘zining quyidagi sinonimlari berilgan: *bet, aft, bashara, turq, aft-angor, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor, tal’at, siymo.* Erkin Vohidov “Istanbul fojiasi”da personajning tashqi qiyofasi va xarakter xususiyatini ifodalashda *yuz* so‘zining salbiy ottenkasi yuqori bo‘lgan *aft, bashara, turq* sinonimik qatoridan unumli foydalangan.

Men cho‘chidim, **afti** bir xunuk...
Basharasi to‘la chandiq, qora plashda.

Turqi sovuq ko‘rinadi. Juda qo‘rqaman,
Kim biladi bu inson kim, murodi nima?

Kontekstda sinonim so‘zlarning salbiy mazmuni yuqoriga izchillik bilan ko‘tarilib boradi va u progressiv gradatsiyaga mansubdir. Bunda dominant so‘z – ***yuz*** she’r matnida bevosita qo‘llanilmagan bo‘lsa ham, assotsiativ tarzda tahlil jarayonida qatnashuvi tabiiy. Chunki mazkur so‘zga nisbatan olinganda, *aft, bashara, turq* so‘zlarining hissiy bo‘yoqdorlik darajasi belgilanadiki, natijada kontekstdagi konnotativ ma’nolardan biri – lirik qahramonning ayni momentdagi tasvirlanayotgan obyektga nisbatan nafrati, qo‘rquv va ehtiyotkorligi kabi hissiy-ekspressiv semalar anglashiladi. Misra “*men cho‘chidim*” hukmi bilan boshlanib, so‘ng qahramon qo‘rquvining sababi keltiriladi: birinchi misraning keyingi qismida obyektning “***afti*** *xunukligi”* va ikkinchi misrada “***basharasi*** *to‘la chandiq, qora plashda”*ligi aytiladi. Mazkur ikki misrada tasvirlanayotgan personajning tashqi qiyofasi lirik subyekt kuzatuvi asosida tashqaridan turib berilsa, keyingi misrada nuqtayi nazar o‘zgaradi. Lirik qahramonning ichki tug‘yoni, ekspressiv munosabati o‘laroq beriladi. *“Kim biladi bu inson kim, murodi nima?”* Matnda sinonim so‘zlar (*aft-bashara-turq*) bog‘lanib kelayotgan so‘zlarning ham konnotativ ma’noni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati yuqori. Ijodkor tasvirlanayotgan obyektga nisbatan *“cho‘chimoq”, “qo‘rqmoq”; “xunuk”, “qora”, “sovuq”; “aft”, “bashara”, “turq” “chandiq”* kabi salbiy ottenkadagi so‘zlardan foydalanadiki, natijada kontekstda tasvirlangan qahramon odamlarga yaxshilik sog‘inuvchi shaxs emas, degan konnotativ ma’no yuzaga chiqadi.

Sahro g‘uboridan elt,
Hozirligimni bilsin
Men **dashti** Karbaloni
Kezmoqqa ham piyoda.

“So‘zlarning kontekstda o‘zaro sinonimiyani yuzaga keltirishi ularning pragmatik jihatdan imkoniyatlaridan – turli xil semalaridan birining tanlab olinishi, birinchi planga chiqarilishi bilan chambarchas bog‘liq” [8. B. 97]. *Sahro* va *dasht* so‘zlari sinonim o‘laroq kontekstda ishlatilgan, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *sahro* va *dasht* so‘zlari yonma-yon izohlanganki, bu ikki so‘zning nafaqat sinonimlik, balki anglatuvchi qo‘shimcha ma’nolari jihatidan ham bir-biriga ancha yaqinligini ko‘rsatadi. “Sahro – [cho‘l, dasht, biyobon] o‘simligi juda kam, suvsiz bepoyon dasht, biyobon, cho‘l” [7. B. 97]. Matnda *sahro* va *dasht* so‘zlarining *“giyoh unmaydigan yer, unumsiz tuproq*” ma’nosidan tashqari yor ishqida kuyayotgan oshiqqa beriluvchi qiyinchilik va sinov makoni semasi aktuallashgan. Bundan tashqari, bandda *“sahro g‘ubori”* va *“dashti Karbalo”* jumlalari kontekstual zidlanish hosil qiladi. *G‘ubor* – sahroning bir parchasi, butunning qismi, oshiqning sinov makoniga daxldor kichik unsur, keyingi misradagi *dashti Karbalo* esa katta va keng makon bo‘lib, qiyinchiliklarni bir butun holida ifodalaydi. *“Sahroning g‘uborini yorga eltish*” jumlasi orqali oshiqning barcha sinovlarga, hatto dashti Karbaloni piyoda kezishga-da tayyorligi yor xabarchisiga murojaat, nido shaklida ifoda etilmoqda. Bundan yor ishqida kuyayotgan oshiqning yorga hissiy munosabati, qiyinchilikdan qo‘rqmasligi va yorning unga ishonishi mumkinligi kabi qo‘shimcha mazmun ham anglashiladi.

“Uch so‘zda bir ma’no” she’riga qo‘yilgan sarlavhaning o‘zida ham kontekstda sinonim so‘zlar

qatnashganiga ishora qilinadi. Shoir misrada uchta bir xil ma'noga ega so'zni qo'llab, konnotativ ma'noni kuchaytirishga erishadi. Kontekstdagi Tush, Xob, Makom – inson tomonidan uyquda ko'riluvchi tush, ro'yoni, Lab, La'l, Dudoq esa yorning labi (*og'iz bo'shlig'ining kirish qismini chegaralab turadigan harakatchan teri burmasi* [7. B. 168]; qo'l, dast, yad *"odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi"* [7. B. 62], inson tana a'zosi qo'l; may, sharob, sog'ar – mast qiluvchi ichimlik; lison, til, zabon – *"kishilar o'rtasida aloqa aralashuvi uchun xizmat qiluvchi muhim vosita"* [7. B. 168]*; Asal* va *bol* esa – "o'simliklar gulidagi shiraning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan shirin, suyuq, oziq moddasi" [7. B. 56]. Muhim jihat shuki, sinonim qatorda kelgan so'zlarning bir sinonimik qatorga mansubligini dominant so'zlarning mavjudligi bilan, ularning dominant so'zga nisbatan qanday qo'shimcha hissiy-ekspressiv ma'no anglatishini esa faqat maxsus bilim bilangina anglash mumkin. Ayni shunday so'zlar *makom, dudoq, dast, yad, sog'ar, zabon*dir. Sanalgan so'zlar adabiy xoslangan bo'lish bilan birga, eskirgan so'zlar hamdir.

Seni ko'rmishdi Aynu Chashmu ko'z
Tush, Xob, Makominda
Labing, La'ling, Dudog'ing
Bu na daryo deb savol bermish.

Qo'ling, Dasting Yadinda
May, Sharob, Sog'ar tutib masrur
Lisoning, Til, Zaboningkim,
Asal, shaxd ila **bol** bermish.

Kontekstda qo'shimcha emotsional-ekspressiv ma'noni kuchaytiruvchi unsurlardan yana biri antonim so'zlardir. Ammo antonim so'zlardan tashqari bir-biriga kontekst doirasida zidlanuvchi badiiy elementlar ham mavjudki, bu hodisani antonimlikdan farqlab, antiteza deb atagan maqbul. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da antitezaga quyidagicha ta'rif beriladi. "1) obraz zamiridagi narsa, hodisa, tushunchalarni keskin qarshilantirishga asoslangan stilistik figura, bu ma'noda tazodga to'g'ri keladi. 2) hozirgi adabiyotshunoslikda antiteza termini stilistik figuragina emas, umuman, kontrast ma'nosida ham ishlatiladi. Bu holda antiteza badiiy usul deb qaraladi hamda badiiy asardagi unsurlarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi nazarda tutiladi [9. B. 31]. Erkin Vohidovning mashhur "Kamtarlik haqida" she'rida [10] antitezaning ikkinchi turiga mansub elementlar (bu o'rinda ikki poetik obraz)ning bir-biriga kontrast qo'llanilganini ko'rish mumkin.

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

Choynak jo'mragining yuqoriga qarashi *"mag'rur va kibr-u havo*", piyolaning kichikligi esa "*kamtarlik*" belgisi sifatida bir-biriga zidlanadi. Bundan tashqari, ikki hayotiy holat choynakning "*mag'rur tursa ham, piyolaga egilishi*" va "*piyola kamtar bo'lgani uchun inson uning peshonasidan o'pishi"* ham kontrastlik hosil qiladi. *Kuch, qudrat, imkoniyat*ning o'zgalarga qaraganda yuqoriligi mag'rurlanish va kibrga sabab bo'lmasligi, kichik, ammo naf keltiruvchilar doimo aziz bo'lishi she'rning tagma'nosi sanaladi.

Erkin Vohidovning "Dutorim tori ikkidur" nomli she'ri antitezaning bir necha turi qo'llanilgani bilan boshqa she'rlardan ajralib turadi. S.Maxsumova "E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi" nomli dissertatsiyasida shoirning mazkur she'ridagi konnotativ ma'nolarni yuzaga chiqarayotgan sinonim va antonim so'zlar xususida fikr bildiradi [11].

Dutorim tori ikkidur:
Biri **quvnoq**, biri **mahzun**,
Ki baytim satri ikkidur:
Biri **dilxush,** biri **dilxun.**

She'riy parchada "ikkinchi misradagi quvnoq so'zi bilan, mahzun so'zini, to'rtinchi misradagi dilxush so'zi bilan dilxun so'zini qarama-qarshi qo'yish orqali antiteza hosil qilingan" [11. B. 52]. Dissertatsiyadagi she'r tahlili ancha pishiq va puxtaligiga qaramay, sinonim va antonimlarning kontekst doirasida anglanuvchi konnotativ ma'nolari xususida atroflicha mulohaza yuritilmagan. Biz ayni shu jihat – kontekstda anglanuvchi konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi unsurlarni tahlil qilishni zarur deb hisobladik. Avvalo, "She'r mavzusiga ishora qilish, she'rxonda muayyan kayfiyatni uyg'otish-u shunga mos estetik kutuv hosil qilish sarlavhaning universal funksiyalaridan" [12. B. 40] sanalishi e'tiborga olinsa, konnotativ ma'noni aniqlash uchun she'r nomidan tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. "Dutorim tori ikkidir" she'rini o'qishga kirishgan kitobxonning dutor – umumiylik, tor esa alohidalikni anglatishi va borliqdagi umumiy, bir butun narsalarning ikki qutbi haqida so'z borishini kutuvi amalga oshadi. She'rning keyingi bandlarida ham ayni shu umumiylik va xususiylik, ular o'rtasida qism va butun munosabati, shu bilan birga, qismlarning o'zaro kontrastligi, zidlanishlarning takrorlanishi natijasida o'quvchining kutuv ehti-

yoji qondiriladi. Tor dutorning ikki qismi bo‘lish bilan birga, uning dutorlik maqomini belgilashda muhim unsurdir. Dutor torlariga xos quvnoqlik va mahzunlik hayotning azaliy haqiqati – yaxshilik va yomonlikning doimo yonma-yon bo‘lishiga ishora qiladi. Lirik qahramonning dutori quvnoq kuy chala boshlaganda, o‘z-o‘zidan mahzun kuy ham yangraydi. Yoki *dilxush,* ya’ni ko‘ngilni xushlovchi bayt yozayotgan shoirning keyingi bayti, taassufki, *dilxun.* Bu o‘rinda Erkin Vohidov matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri antonim so‘zlar vositasida konnotativ ma’no – hayotda azaldan yaxshi va yomonning doim baqamti kelishiga diqqatni qaratadi.

Jahonning mehri ikkidur:
Biri **sensan**, biri **oftob**,
Tarozu pallasi ikki:
Biri **yerdur**, biri **gardun.**

“Ayniqsa sen so‘zining *oftob* so‘ziga zid qo‘yilishi xarakterli. Bu o‘rinda shoir ikki narsani bir-biriga o‘xshatish va tenglash asosida yana zidlashga erishgan. Har ikkalasi ham (yor va oftob) go‘yo teng qo‘yiladi, biroq *oftob* boshqa narsa, yor boshqa. Tazod san’atidan bu darajada ustalik bilan foydalanish E.Vohidov ijodi uchun xaraktelidir” [11. B. 52]. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da tazodga quyidagicha ta’rif beriladi: “...(arabcha zid qo‘yish, qarshilantirish) mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, nasr va nazmda bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ishlatish...” [12. B. 306]. Shuningdek, ular faqat shartli ravishdagina zidlanishi mumkinligi aytiladi. Yuqoridagi misralarda ham ayni holat yuzaga kelgan. *Sen* va *oftob* so‘zlari kontekstdan alohida olinganda bir-biriga nisbatan kontrastlilik xususiyatini yo‘qotadi, ular faqat mazkur matn doirasidagina shartli asosda zidlik hosil qiladi. Ikkinchi tomondan, zidlik yuqoridagi *quvnoq-mahzun, dilxush-dilxun, yer-gardun* (osmon) antonimlaridagidek emas. To‘g‘ri, yuqoridagi antonimlarda ham bir obraz (tor, bayt, tarozi, olam)ning ikki tomoni ifodalanadi, ammo antonimlar bir narsaning ikki qarama-qarshi qutbi sifatida tasvirlanadiki, bu jihati bilan *sen* va *oftob* so‘zlari ulardan farqlanadi. *Mehr* so‘zi “sen-oftob” so‘zlariga birdek taalluqli bo‘lsa ham, *sen* va *oftob* so‘zlarida kontekstual ham, kontekstdan tashqarida ham qarama-qarshi qutbni ifodalash semasi mavjud emas, ular faqat bir mohiyat (mehr)ning ikki ko‘rinishi, xolos. She’rdagi *“Jayxun, Sayxun*” (umumiy sema: ko‘z va uning yoshi), *“sen va Laylo”* (yor, dilbar), *“men va Majnun”* (oshiq), *“qoya va osmon”* (lochin makoni), *“o‘lka va ochun”* (shoir qanoti, qalbi) so‘zlari ham shu tarzda bir-biri bilan kontekstual jihatdan antiteza hosil qiladi.

G‘azal bitmakda sachrabdur
Ko‘zimdan yosh, dilimdan o‘t.
Shu bois ikki satrimning
Biri **qatra**, biri **uchqun**.

“Qatra – [arabcha, tomchi, zarra, tomizg‘i] suyuqlikning zarralari tortishuvi natijasida sharcha shaklini olgan alohida kichik bo‘lagi; tomchi. Uchqun 1. Tomchi, laqqa cho‘g‘ bo‘lib turgan moddadan otilib, uchib chiquvchi zarra. 2. Narsalarning bir-biriga tegishi va urinishidan hosil bo‘luvchi olov-zarra...” [13. B. 263]. Salmoqli mutaxassislar ijod lahzasi og‘ir, qiynoq va ruhiy bosim bilan kechishini ta’kidlaydilar. *Qatra* so‘zi ko‘z yoshi, uchqun esa lirik qahramonning dilidagi o‘tning bir zarrasidir. Ularning ikkisi shoirning yozgan ikki misrasida akslanganini ifodalash bilan shoir she’r misralari qalbdagi qiynoq natijasida vujudga kelgani, uning qimmati ham ayni shu “dard” va “quvonch” bilan o‘ziga xos – qimmatli ekanligini ta’kidlaydi, go‘yo.

Erkin Vohidovning “Sharqiy qirg‘oq” to‘plamiga kiritilgan nomsiz quvg‘indi va xonaki mushuk haqidagi she’ri zidlanish va tagma’noga ishora qilish nuqtayi nazaridan diqqatni tortadi.

Sovuq chordoqlarda quvg‘indi, shumshuk,
Och o‘lim vahmida yashab har nafas,
Taqdirdan noliydi egasiz mushuk,
Xonaki qavmiga qiladi havas.

Bu esa uxlarkan tinch va beparvo,
Bosh qo‘yib bekaning issiq to‘shiga,
Xayolida kezar bog‘otlar aro,
Yovvoyi ozodlik kirar tushiga.

She’rning har ikki bandi unda tasvirlanayotgan obrazlar orqali bir-biriga zidlanadi. Jumladan,

obyekt: *“egasiz, quvg‘indi, shumshuk mushuk” – “xonaki qavm”;*

makon:*“sovuq chordoq” – “bekaning issiq to‘shi”*;

vaziyat: *“o‘lim vahmi”- “tinch va beparvo hayot”;*

xususiyat: *“yovvoyi-ozodlik” “xonaki”*likka kontrast qo‘yiladi.

Avvalo, egasiz va quvg‘indi mushukning ahvoli yoritiladi, bunda sovuq chordoq (makon), och o‘lim vahmi (vaziyat), taqdirdan nolish (holat) barchasi qiyinchilik va iztirob semalarini yuzaga chiqaradi. O‘z-o‘zidan tasvirlanayotgan obyekt – “egasiz, quvg‘indi mushuk”ka achinish hissi aktuallashadi. E’tibor berilsa, berilgan to‘rt misrada salbiy ma’no bo‘yoqdorligi yuqori *sovuq chordoq, quvg‘indi, shumshuk, och o‘lim vahmi, nolimoq, egasiz mushuk* so‘zlari qo‘llanib, birgina ijobiy ottenkali “havas qilish” so‘zi

band nihoyasida yorug‘lik mazmuniga ishoradek. Ammo bandning so‘ngida berilgan yorug‘lik ma’nosi keyingi band mazmuni bilan yo‘qqa chiqadi. Ikkinchi band boshlanishidagi “Bu” so‘zi “xonaki qavm”dagi mushukni ifodalab, u bekaning issiq to‘shi (makon) da tinch va beparvo (holat) uxlashi tasvirlanadi. Ammo bu holat uning to‘la mas’udligini bildirmaydi, keyingi misralardagi “xayolida bog‘otlar aro kezishi, tushiga yovvoyi ozodlikning kirishi” tasviri “xonaki qavm”ning ham yashash tarzida kemtiklik borligini anglatadi. Biri (shumshuk mushuk) orzu qilgan “tinch va betashvish hayot”ning badali bekaga itoat qilish, erkini birovga berish evaziga sodir bo‘layotgani, ikkinchisi (xonaki mushuk) orzu qilayotgan erkin hayot ochlik vahmi va qiyinchilikdan iboratligi anglashiladi. Endi ikki vaziyatda ham mukammallikning mavjud emasligi va erishilgan narsa emas, balki erishilmagan narsa barcha uchun “baxt shakli” sifatida idrok etilishi konnotativ ma’no sifatida yuzaga chiqadi. Mazkur pragmatik ma’noni she’r bandlariga singdirilgan mazmunni chuqur tushunish, tahlil qilish bilan birga, tasvirlanayotgan obrazlarni bir-biriga zidlash orqaligina yuzaga chiqarish mumkin.

Zidlanish turfa hissiy-intellektual ma’nolarni kontekstda reallashtirishda muhim sanaladi. Ijodkorning «“Kanada daftari”dan» she’rida zidlik lirik qahramonning turfa sabablar bilan parchalanib ketayotgan dunyoga, uning bo‘linishiga sababchi bo‘layotganlarga nisbatan salbiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

Zamin otli bir Sayyorani
Ikki bo‘lak qilib so‘ydilar.
G‘arb dedilar bitta porani
Bir porani **Sharq** deb qo‘ydilar.

She’rda G‘arb va Sharq kontekstual jihatdan zidlik hosil qilgan, bir butun dunyoning ikki qismga bo‘linishi lirik qahramonda afsuslanish va atrofda bo‘layotgan ishlarga norozilik hissini yuzaga chiqargan. Nutq subyekti (lirik qahramon)ni qiynayotgan asl muammo dunyoning G‘arb va Sharq deb nomlangani emas, balki insonlar ularni ikkita tomon va bir-biriga zid deb hisoblayotganidir. Keyingi banddagi “*dona-dona sochilib ketdi anor kabi kesilgan dunyo”* jumlasi birinchi banddagi ikki qutbning parchalanishi hamon davom etayotganini ifoda etgan. Shunga ko‘ra, dunyoning parchalanishiga nisbatan nutq subyektining munosabati (*achinish, xavotir*) va ayni voqelikning insoniyat uchun ziyon ekanligi haqidagi xulosa bandning konnotativ ma’nolaridan biri sifatida belgilanishi mumkin.

Yurak va aql qadim zamonlardan beri insonning bir-biriga zid ikki qutbi deb qaraladi. Shoir “Yurak va aql” she’rida ayni shu unsurlarni zidlantirish bilan yurak va aqlning bir-biridan ustun va o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib beradi.

Aql cheksiz fazoga hokim.
Aql hokim olam yuziga.
Borliq unga bo‘ysunar,
Lekin
Yurak kirmas uning so‘ziga.

Berilgan parchada *aql* va *yurak* zidligidan tashqari qo‘shimcha ravishda yurak obrazi aqlga bo‘ysungan fazo, olam, borliq obrazlariga kontrast qo‘yiladi. Shuningdek, misradagi *fazo, olam, borliq* sinonimik qatori aql obrazining kuchi-haybatini alohida urg‘ulashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ana shunday qudrat bilan ham aqlning yurakni o‘z izmiga sola olmagani yurakning aqlga bo‘ylasha oluvchi kuch-qudrat mazmunini aktuallashtiradi.

Shundan bir yon boshlasa aqlim,
Boshqa yonga yetaklar yurak.
Bilolmayman, qaybiri haqli,
Qaybiriga ishonmoq kerak.

Keyingi misralarda lirik qahramonning aql va yurakdan qay birini tanlash zarurligi masalasi o‘rtaga chiqadi. Keyin*“aql qancha haqli bo‘lsa ham, tutar bo‘ldim ko‘nglim izmini”* misralaridan lirik qahramonning yurak izmiga bo‘ysungani anglashiladi. Bunda lirik qahramonning aql izmiga bo‘ysungan borliq (keyingi misralarda do‘stlar) bilan u o‘rtasida zidlik yuzaga keladi. Ya’ni yurak izmidaligi uchun qahramon aqlga bo‘ysunmaydi, aqlga bo‘ysunuvchilar esa yurakka quloq tutmaydi. Bunda yurak izmini ixtiyor etish, hech qanday irodasizlik natijasi emas, balki ongli ravishda tanlangan harakat ekani urg‘ulanadi.

Aybli emas bunda irodam,
Ma’zur tuting, do‘stlar, siz meni.
Aql qancha haqli bo‘lsa ham,
Tutar bo‘ldim yurak izmini.
U baxsh etgan otashda yondim,
O‘zi bo‘ldi menga rahnamo.

Ma’lumki, ijodkor shaxsi yurak izmiga yuruvchilar toifasiga kiradi, ammo shoir buni odatiy ko‘nikilgan fikr tarzida bermaydi. So‘nggi misralarda aqlning haqligi yurak *“baxsh etgan otash”* bilan zidlik hosil qiladi va lirik qahramonning yurak izmiga bo‘ysunishiga ayni shu jihat asos bo‘lgani ta’kidlanadi.

Xulosa qilinsa, sinonim va antonim so‘zlar konnotativ ma’noni yuzaga chiqarishda muhim funksiya bajaradi, ularning kontekst doirasida aktuallashuvchi ma’no qirralarini tahlil qilish orqali badiiy matnning tub estetik qatlamidagi ma’nolarni aniqlash mumkin. Ayniqsa kontekstdagi o‘zaro zidlanuvchi unsurlar biri ikkinchisiga qiyoslanishi, zidlanishi va umumiylashishi natijasida butunning asl mohiyatiga ishora qilib konnotativ mazmunni yuzaga chiqarishda ahamiyatlidir. Erkin Vohidov zakiy ijodkor sifatida sinonim va antonim so‘zlardan o‘zining badiiy niyat ijrosida unumli foydalangan. Uning she’rlaridagi konnotativ ma’nolarni yuzaga chiqarayotgan so‘zlarni tahlil qilish lingvopoetika ilmi uchun ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. *Vaxidova F.S.* Ingliz va o’zbek tillarida turizmga oid terminologik tizimlarining qiyosiy tahlili //NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022. – № 3. –B. 379–383.

2. *Ахманова О.С*. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 606 с.

3. *Қиличев Э.* Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 87 б.

4. *Қиличев Э., Қиличев Б*. Коннотатив маъно ва унинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №. 6. – Б. 68–71.

5. *Липгарт А.А*. Основы лингвопоэтики. – Москва: КомКнига, 2006. – 168 с.

6. *Абдуллаев А.* Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.

7. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 2-jild. / N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 504 b.

8. Неъматова Д. Синонимларнинг услубий хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020. – № 2. – Б. 97 – 100.

9. *Қуронов. Д., Мамажонов З., Шералиева М*. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 400 б.

10. *Vohidov E.* Kamtarlik haqida. [Internet manba]. URL: https://tafakkur.net/kamtarlik-haqida/erkin-vohidov.uz. (Murojaat etilgan sana 17.02.2024)

11. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.

12. Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 128 б.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. V жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 591 с.

14. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – 127 б.

ANTONYMS AND SYNONYMS IN CONTEXT CONNOTATIVE MEANING

(Example of Erkin Vahidov's poems)

Donoxon S. Ne'matova, Gulira'no A. Soliyeva

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 3(79). 83-90.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: connotative meaning, synonym, antonym, antithesis, means of artistic representation, context.

The article discusses the synonyms and antonyms used in Erkin Vahidov's poems and their function in the text of the poem, as well as the connotative meanings of the synonyms and antonyms that appear only within the context. Also, the dominant word in the synonymous line and its relationship with other words in the line, similar and different aspects of antonym and antithesis phenomena are highlighted within the analysis of the poem text. Conclusions are given about the characteristics of individual synonyms and antonyms specific to the creator.

In a broad sense, communication consists of a subject speaking and a listener, and a work of art carries the same characteristic. That is, the author communicates with the reader in his imagination, the message is a self-realized speech (oral or written), a word or sentence conveys certain information, the third ring is influence. the reader (speech changes from the speech of any person under the influence of a certain emotional-intellectual attitude. That is, the context (in the creation of artistic speech and its re-creation (reading), the communication to the author, the message to the work of art, the reader is functionally equivalent to secret.

Among these aspects, the one that is important for us is the impact (reader) ring, and below we will discuss the connotative meaning of synonyms and antonyms within the context and its impact on the reader. we walk The phenomenon of conflicting images in the poet's untitled poem beginning with «in cold attics» is analyzed. Including, **subject:** «possessed, chased, smurf cat» - «domestic people»;

space: «cold attic» - «the mistress's warm bed»;

situation: «fear of death» - «peaceful and carefree life»;

feature: «wild-liberty» is contrasted with «domesticity».

In both situations, the non-existence of perfection and not what is achieved, but what is not achieved, is perceived as a «form of happiness» for everyone as a connotative meaning. It is based on the fact that this pragmatic meaning can be revealed only by contrasting the depicted images with a deep understanding and analysis of the content embedded in the verses of the poem.

In conclusion, synonyms and antonyms play an important role in revealing the connotative meaning, and by analyzing the aspects of actualizing meaning within their context, it is possible to determine the meanings in the basic aesthetic layer of the artistic text. It is especially important to reveal the connotative content by referring to the true nature of the whole as a result of comparing, contrasting and generalizing mutually contradictory elements in the context. Erkin Vahidov, as a creative artist, effectively used synonyms and antonyms in the performance of his artistic intention. Analyzing the words that reveal connotative meanings in his poems is a necessity for the science of linguopoetics.

References:

1. Vaxidova, F.S. (2022) Ingliz va o'zbek tillarida turizmga oid terminologik tizimlarining qiyosiy tahlili [Comparative analysis of english and russian terminological systems of tourism]. *NamDU ilmiy axborotnomasi*. No 3. Pp. 379-383.

2. Ahmanova, O.S. (1966) *Slovar' lingvisticheskih terminov* [Dictionary of linguistic terms]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya.

3. Kilichev, E. (1982) *Badiiy tasvirning leksik vositalari* [Lexical means of artistic image]. Tashkent: Fan.

4. Kilichev, E., Kilichev, B. (2006) Konnotativ ma'no va uning ifodalanishi [Connotative meaning and its expression]. *O'zbek tili va adabiyoti*. No 6. Pp. 68-71.

5. Lipgart, A.A. (2006) *Osnovy lingvopoetiki* [Fundamentals of linguistic poetics]. Moscow: KomKniga.

6. Abdullaev, A. (1983) *O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi* [Expression of ekspressiveness in the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

7. Mahmudov, N. (2022) O*'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati* [A large explanatory dictionary of synonyms of the Uzbek language]. Vol. 2. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi.

8. Nematova, D. (2020) Sinonimlarning uslubiy xususiyatlari [Methodological features of synonyms]. *O'zbek tili va adabiyoti*. No 2. Pp. 97-100.

9. Kuronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of literary studies].Tashkent: Akademnashr.

10. *Vohidov, E. Kamtarlik haqida* [About humility]. [Online]. URL: https://tafakkur.net/kamtarlik-haqida/erkin-vohidov.uz. (Date of Access: 17.02.2024)

11. Maksumova, S. (2012) E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi [Expression of connotativeness in the works of E.Vahidov]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Ташкент.

12. Kuronov, D. (2018) *Nazariy qaydlar* [Theoretical notes]. Tashkent: Akademnashr.

13. Madvaliev, A. (ed.) (2008) *O'zbek tilining izohli lug'ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 5. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

14. Ne'matova, D. (2016) *Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili* [Linguistic analysis of journalistic works of Chulpan]. Tashkent: Turon zamin ziyo.

Mualliflar haqida ma'lumot:

NE'MATOVA Donoxon Sayjalolovna – filologiya fanlari nomzodi. Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. E-mail: d.nematova1972@gmail.com

SOLIYEVA Gulira'no Abdulhay qizi – Andijon davlat universiteti Lingvistika yo'nalishi 2-bosqich magistranti. E-mail: abdulvohid241@gmail.com